

QISHLOQ XO'JALIGI SUB'EKTLARINING INVESTITSIYA FAOLIYATI

Zaripov Azamat Djurayevich

*Guliston davlat universiteti Buxgalteriya hisobi va moliya kafedrası o`qituvchi,
mustaqil tadqiqotchi, Guliston, O'zbekiston, zaripovazamat461@gmail.com,*

tel : 998930431275

Anotatsiya: Anotatsiya: Tadqiqotning dolzarbligi investitsiya faoliyati jarayonini baholash korxona uchun potentsial foyda va xavf parametrlaridan iborat bo'lishi kerakligi bilan belgilanadi. Ushbu yondashuv ko'proq korxona boshqaruviga yo'naltirilgan va resurslarni hisobga olish sohasidagi moliyaviy vaziyatga potentsial ta'sirni baholash va prognozlash va prognoz tuzilmasida individual ma'lumotlarni taqdim etish imkoniyatlarini yanada rivojlantirishni talab qiladi. Mualliflar asosiy klassik yondashuvlarni o'rganib, korxonaning investitsiya faoliyatini baholashning uslubiy yondashuvini ochib beradi va kapitaldan foydalanish samaradorligi ko'rsatkichlarini, mehnat resurslari va kapital qo'yilmalarni ko'rib chiqadi.

Abstract: The relevance of the study is determined by the fact that the assessment of the investment activity process should consist of parameters of potential profit and risk for the enterprise. This approach is more focused on enterprise management and requires further development of the possibilities of assessing and forecasting the potential impact on the financial situation in the field of resource accounting and the presentation of individual data in the forecast structure. The authors, having studied the main classical approaches, reveal a methodological approach to assessing the investment activity of the enterprise and consider indicators of the efficiency of capital use, labor resources and capital investments.

Kalit so'zlar: investitsiyalar, baholash, yondashuv, tahlil, faoliyat, korxonalar, buxgalteriya hisobi.

Keywords: investments, valuation, approach, analysis, activity, enterprises, accounting.

Kirish O'zbekiston iqtisodiyoti tarkibida qishloq xo'jaligi sohasi yetakchi tarmoqlardan biri bo'lib, mamlakat oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, eksport salohiyatini oshirish va qishloq hududlarida bandlikni kengaytirishda muhim rol o'ynaydi. So'nggi yillarda ushbu yo'nalishda keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda: er egaligi munosabatlari liberallashtirildi, subsidiyalar tizimi takomillashtirildi, davlat xaridlari mexanizmi qayta ko'rib chiqildi va raqamli texnologiyalar joriy etilmoqda. Biroq, qishloq xo'jaligi sub'ektlarining investitsiyaviy faolligi hali ham kutilgan darajada emas. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 20-dekabrda PF-60-son Farmonida qayd etilishicha, "qishloq xo'jaligi sohasida investitsiya jalb qilish mexanizmlari va xususiy sektor ishtirokini kengaytirishga qaratilgan tizimli yondashuvlar yetarli darajada shakllanmagan"¹ Mazkur sharoitda investitsiya faoliyatini to'g'ri baholash, uni boshqarish va samaradorligini oshirishga qaratilgan metodik yondashuvlarni ishlab chiqish dolzarb ilmiy va amaliy vazifaga aylanmoqda. Bu esa, o'z navbatida, resurslardan oqilona foydalanish, kapital qo'yilmalar rentabelligini oshirish va qishloq xo'jaligi sub'ektlarining moliyaviy barqarorligini ta'minlash imkonini beradi.

Mavzuni o'rganish darajasi:

Qishloq xo'jaligi sub'ektlarining investitsiya faoliyatini o'rganish masalasi xalqaro va milliy ilmiy adabiyotlarda muhim tadqiqot yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Investitsiyalarning iqtisodiy samaradorligi, kapital qo'yilmalar risklarini baholash va moliyaviy resurslardan oqilona foydalanish tamoyillari bo'yicha jahonda bir qancha klassik nazariyalar shakllangan. Jumladan, Asvat Damodaran (2012) o'zining "Investment Valuation" asarida investitsiyaviy loyihalarni baholashda sof joriy qiymat (NPV), ichki rentabellik darajasi (IRR) va boshqa mezonlarning qo'llanilishiga oid metodik yondashuvlarni asoslab bergan² O'zbekiston sharoitida ham investitsiya faoliyatini iqtisodiy jihatdan baholash bo'yicha bir qator tadqiqotlar amalga oshirilgan. M. Vahobov,

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-60-son Farmoni, 2022-yil 20-dekabr. "2023–2030-yillarda O'zbekiston Respublikasining qishloq xo'jaligini rivojlantirish strategiyasi to'g'risida". Lex.uz: <https://lex.uz/docs/6260149>

² Damodaran, A. (2012). *Investment Valuation: Tools and Techniques for Determining the Value of Any Asset* (3rd ed.). John Wiley & Sons.

A. Mahmudov, B. Nasirov kabi iqtisodchi olimlar tomonidan investitsiyalar samaradorligi, ularning tarmoqlar bo'yicha ta'siri, moliyalashtirish manbalari va risklarni boshqarish mexanizmlari keng tahlil qilingan. Jumladan, A. Mahmudov va B. Nasirov (2020) o'z tadqiqotlarida qishloq xo'jaligi sohasida investitsion risklar yuqoriligi sababli standart baholash modellari doimiy mos kelmasligini, tarmoqqa moslashtirilgan yondashuvlar zarurligini ta'kidlagan³.

Xalqaro amaliyotda qishloq xo'jaligi sub'ektlarining investitsiyalarini ishlab chiqarish bir qator'or metodologiyalar ishlab chiqarish. Jahon Banki BMTning Qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat mahsulotlari tashkiloti (FAO) tomonidan taqdim etilgan hisobotlarda qishloq xo'jaligi investitsiya va xavfsizlik choralarini ko'rish uchun integratsiyalashgan ishlab chiqarishlar - ijtimoiy va ekologik mezonlarni jamlanish zarurligi ta'kidlan.⁴ Xalqaro amaliyotda qishloq xo'jaligi sub'ektlarining investitsiya faoliyatini baholashda ko'plab metodologiyalar ishlab chiqilgan va qo'llanilmoqda. Jahon Banki va BMTning Qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat mahsulotlari tashkiloti (FAO) tomonidan taqdim etilgan hisobotlarda ham qishloq xo'jaligiga sarmoya kiritishda faqat iqtisodiy samaradorlikni emas, balki ijtimoiy va ekologik barqarorlik mezonlarini ham hisobga olish zarurligi ta'kidlangan. Ushbu yondashuv integratsiyalashgan investitsiya modeli sifatida ko'riladi, bu esa qishloq xo'jaligi sub'ektlarining uzoq muddatli rivojlanishini ta'minlashga qaratilgan. Ijtimoiy mezonlar sifatida mahalliy aholi bandligini oshirish, mehnat sharoitlarini yaxshilash va qishloq hududlarining ijtimoiy infratuzilmasini rivojlantirish kabi omillar muhim hisoblanadi. Shu bilan birga, ekologik mezonlar doirasida tuproq unumdorligi, suv resurslaridan oqilona foydalanish, biologik xilma-xillikni saqlash va atrof-muhitning ifloslanishini kamaytirish kabi jihatlar asosiy o'rin tutadi. Shunday qilib, investitsiya loyihalarining baholash jarayonida ijtimoiy va ekologik xavfsizlik choralarini birgalikda ko'rib chiqish, barqaror rivojlanishga xizmat qiluvchi asosiy omilga aylanmoqda.

³ Mahmudov, A.M., & Nasirov, B.T. (2020). *Investitsiyalar va ularning samaradorligi*. Toshkent: "Iqtisod".

⁴ **Jahon Banki va FAO. (2019). Qishloq xo'jaligi investitsiyalari va barqaror rivojlanish. Vashington, D.C.**
<https://www.fao.org/3/ca4691en/ca4691en.pdf>
https://www.oecd.org/en/publications/oecd-fao-agricultural-outlook-2019-2028_agr_outlook-2019-en/full-report.html

O'zbekiston sharoitida ham qishloq xo'jaligi sub'ektlarining investitsiya faoliyatini rivojlantirish uchun shu kabi integratsiyalashgan yondashuvlarni qo'llash muhimdir. Jumladan, respublika hududida amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar, xususan, yer egaligi munosabatlarining liberallashtirilishi, subsidiyalar tizimining takomillashuvi va raqamli texnologiyalarni joriy etish investitsiyaviy muhitni yaxshilashga xizmat qilmoqda. Biroq, investitsiyalar samaradorligini oshirish va ularning iqtisodiy, ijtimoiy hamda ekologik ta'sirini kompleks baholash uchun yanada ilmiy asoslangan metodikalar ishlab chiqilishi zarur. "Qishloq xo'jaligi sohasida investitsiya loyihalarini baholashda iqtisodiy samaradorlik bilan bir qatorda ijtimoiy va ekologik barqarorlik mezonlarini hisobga olish zarurati mavjud. Bu yondashuv barqaror rivojlanishni ta'minlash uchun integratsiyalashgan investitsiya strategiyasini yaratadi."⁵ "Investitsiya faoliyatining samaradorligini oshirish uchun moliyaviy ko'rsatkichlar bilan bir qatorda, mahalliy jamoalar salomatligi va atrof-muhitga ta'sir kabi ijtimoiy va ekologik indikatorlarni ham baholash zarur."⁶ Shu maqsadda, qishloq xo'jaligi sub'ektlarining investitsiya faoliyatini baholashda moliyaviy ko'rsatkichlar bilan bir qatorda ijtimoiy va ekologik indikatorlarni ham kiritish lozim. Masalan, kapital samaradorligi, investitsiyalarning rentabelligi va xavf parametrlarini baholashdan tashqari, loyihaning mahalliy aholi salomatligi, bandligi va atrof-muhitga ta'siri ham alohida ko'rib chiqilishi kerak. Bu borada innovatsion texnologiyalar, masalan, raqamli monitoring tizimlari va ma'lumotlar tahlili vositalaridan foydalanish qishloq xo'jaligi investitsiyalarining samaradorligini sezilarli darajada oshirish imkonini beradi.

Tahlil va natijalar. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, O'zbekiston qishloq xo'jaligi sub'ektlarining investitsiya faoliyati sohasida an'anaviy moliyaviy ko'rsatkichlar bilan bir qatorda ijtimoiy va ekologik mezonlarni hisobga olish hali yetarlicha rivojlanmagan. Jahon Banki va FAO hisobotlarida ta'kidlanganidek, qishloq xo'jaligiga sarmoya kiritishda barqaror rivojlanish mezonlarini integratsiyalashgan holda qo'llash

⁵ Jahon Banki va BMT Qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat mahsulotlari tashkiloti (FAO). (2019). *Qishloq xo'jaligi investitsiyalari va barqaror rivojlanish*. Vashington, D.C. <https://www.fao.org/3/ca4691en/ca4691en.pdf>

⁶ Zaripov, A. D. (2023). Qishloq xo'jaligi sub'ektlarining investitsiya faoliyati. *Guliston davlat universiteti Buxgalteriya hisobi va moliya kafedrası*. Guliston, O'zbekiston.

mamlakatlar uchun muhim istiqbolli yo‘nalishdir. "Investitsiya risklarini kamaytirish va qishloq xo‘jaligi sohasida barqaror o‘shishni ta‘minlash uchun maxsus metodik yondashuvlarni ishlab chiqish zarur."⁷ Tahlil jarayonida qishloq xo‘jaligi sub’ektlarining investitsiya faoliyatiga ta’sir qiluvchi asosiy omillar aniqlanib, ularning har biri bo‘yicha batafsil baholash o‘tkazildi. Shu jumladan, davlat siyosati va qonunchilik bazasi, moliyalashtirish imkoniyatlari, xususiy sektorning ishtiroki, shuningdek, ekologik va ijtimoiy xavfsizlik choralari mavjudligi o‘rganildi.

Aniqlanishicha, O‘zbekistonning so‘nggi yillardagi iqtisodiy islohotlari va qishloq xo‘jaligiga oid davlat dasturlari investitsiyalarni jalb qilish sohasida ijobiy o‘zgarishlarga olib keldi. Xususan, subsidiyalar tizimi takomillashgani, kredit resurslariga kirish imkoniyati oshgani va davlat xaridlari mexanizmi takror ko‘rib chiqilgani sub’ektlarning investitsiyaviy faolligini qo‘llab-quvvatladi. Biroq, tadqiqot shuni ko‘rsatdiki, qishloq xo‘jaligi sub’ektlarining ko‘pchiligi uchun investitsiya risklarini baholash va boshqarish borasida aniq metodologiyalar yetishmaydi. Natijada, investitsiya qarorlari ko‘pincha intuitiv yoki an’anaviy yondashuvlarga asoslangan bo‘lib, bu esa samaradorlikni pasaytiradi.

Shuningdek, ekologik va ijtimoiy barqarorlik mezonlari ko‘pincha investitsiya loyihalarida to‘liq hisobga olinmaydi. Bu esa uzoq muddatda atrof-muhitga zarar yetkazish, ijtimoiy muammolar yuzaga kelishi va qishloq hududlarining rivojlanishida to‘siqlar paydo bo‘lishiga olib kelishi mumkin. Tahlil natijalari asosida qishloq xo‘jaligi sub’ektlarining investitsiya faoliyatini rivojlantirish uchun quyidagi asosiy yo‘nalishlar aniqlanadi: Investitsiya risklarini baholash va boshqarish bo‘yicha maxsus metodologiyalar ishlab chiqish va joriy etish; Ijtimoiy va ekologik mezonlarni investitsiya tahlilida majburiy qism sifatida kiritish; Davlat tomonidan qo‘shimcha rag‘batlantiruvchi mexanizmlarni yaratish, xususan, soliq imtiyozlari va subsidiyalarni kengaytirish; Innovatsion texnologiyalar va raqamli vositalarni keng joriy etish orqali investitsiya jarayonlarini avtomatlashtirish va shaffofligini oshirish. Shu bilan birga, mahalliy va

⁷ Mahmudov, A., & Hamidov, S. (2019). Qishloq xo‘jaligida investitsiya risklarini boshqarish. *Iqtisodiyot va moliya jurnali*, 12(3), 78-85.

xalqaro tajribalarni hisobga olgan holda, investitsiya faoliyatini kompleks tarzda qo'llab-quvvatlash va monitoring qilish tizimini yaratish muhimdir. Bu, o'z navbatida, qishloq xo'jaligi sohasida barqaror rivojlanish va iqtisodiy o'sishni ta'minlashga xizmat qiladi.

Mahalliy korxonalar rivojlanishining hozirgi bosqichida ularning faoliyati natijalarini baholashning yangi usullarini qo'llash zarurati tug'iladi, chunki ilgari qo'llanilgan usullar boshqaruv uchun strategik maqsadlarni qabul qilishda har doim ham muhim dastak bo'lgan barcha iqtisodiy ko'rsatkichlarni to'liq aks ettirishni ta'minlay olmaydi.⁸ So'nggi yillarda 1.-jadval O'zbekistonda asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi sezilarli darajada oshmoqda. Ayniqsa, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi sohasiga ajratilgan mablag'lar o'sishi kuzatilmoqda, biroq umumiy investitsiyalardagi ulushi asta-sekin pasaymoqda. Buning sababi, iqtisodiyotning boshqa tarmoqlari, xususan sanoat va xizmat ko'rsatish sohalariga investitsiyalar tez sur'atlarda oshayotgani bilan izohlanadi. Shu sababli, qishloq xo'jaligi sektorining investitsiyalardagi ulushi kamaymoqda, garchi mablag'larning o'zi oshayotgan bo'lsa ham.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi⁹
(O'zbekiston Respublikasi, yillik) mlrd.so'm. 1.-jadval

Yillar	Hammasi	Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	foizda
2010	16463,7	1655	10,1
2011	19500	2488,5	12,8
2012	24455,3	2745,4	11,2
2013	30490,1	3129	10,3
2014	37646,2	3858,3	10,2
2015	44810,4	4515,4	10,1
2016	51232	4795,3	9,4
2017	72155,2	6110,6	8,5

⁸ https://iqtisodiyot.tsue.uz/sites/default/files/maqolalar/5_Astanakulov.pdf

⁹ Manba:stat.uz


2018	124231,3	7991,9	6,4
2019	195927,3	12199,1	6,2
2020	210195,1	14776,8	7
2021	239552,6	17727,9	112,9
2022	266240	15703,6	5,9
2023	356071,4	17004,4	4,8

Jadvalda ko'rsatilgan raqamlar O'zbekiston Respublikasida asosiy kapitalga yillik investitsiyalar hajmini bildiradi. Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi sohasiga ajratilgan investitsiyalar umumiy investitsiyalarning muhim qismi bo'lib, sohada iqtisodiy rivojlanish va oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda asosiy rol o'ynaydi.

Qishloq xo'jaligini ishlab chiqarish resurslari bilan talab darajasida ta'minlash, ulami takror ishlab chiqarish uchun investitsiyalar jalb etilmoqda. Investitsiyalar tufayli tarmoqda fan-texnika taraqqiyoti jadallashmoqda, uning yutuqlaridan foydalanish jarayoni rivojlantirilib, ilg'or texnologiyalar joriy etilmoqda. Investitsiyalar korxonalarning o'z mablag'lari hamda chetdan jalb etilayotgan mablag'lar evaziga amalga oshirilmoqda.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi¹⁰
(O'zbekiston Respublikasi, yillik) mlrd.so'm. 1-rasm.

¹⁰ Manba:stat.uz



Jadval ko'rsatkichlariga asoslanib, O'zbekistonda asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi so'nggi o'n yilda barqaror o'sish tendentsiyasini saqlab qolmoqda. Umumiy investitsiyalar hajmi 2010 yildagi 16,463.7 mlrd. so'mdan 2023 yilda 356,071.4 mlrd. so'mga yetib, sezilarli darajada o'sdi. Bu iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish va infratuzilmani rivojlantirish bo'yicha davlat siyosatining samarali amalga oshirilayotganini ko'rsatadi. Biroq, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi sohasiga ajratilgan investitsiyalarning umumiy hajmdagi ulushi so'nggi yillarda pasayish tendentsiyasini namoyish qilmoqda. 2010 yilda ushbu sohaning ulushi 10,1% bo'lgan bo'lsa, 2023 yilda bu ko'rsatkich 4,8% ga tushib ketdi. Bu, asosan, iqtisodiyotning boshqa tarmoqlariga — sanoat, xizmat ko'rsatish, qurilish kabi sektorlar — investitsiyalar ko'proq yo'naltirilayotganligini anglatadi. Pasayishning yana bir sababi — qishloq xo'jaligi sohasidagi investitsiya samaradorligi va innovatsion texnologiyalarning sekin joriy etilishi. Bu esa, o'z navbatida, sektorning raqobatbardoshligini va investitsiya jalb qilish qobiliyatini kamaytiradi. Shuningdek, ekologik va ijtimoiy xavfsizlik mezonlari yetarlicha hisobga olinmasligi investitsiya jarayonining samaradorligini pasaytiruvchi omillardan biridir. Bundan tashqari, davlat tomonidan qishloq xo'jaligiga ajratilgan subsidiya va kredit tizimlarining takomillashishi, hamda investitsiyalarni qo'llab-quvvatlash mexanizmlarining rivojlanishi bu sohaning investitsiya faolligini oshirish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratmoqda. Bizning fikrimizcha, qishloq xo'jaligida raqamli

texnologiyalar va innovatsiyalarni joriy etish samaradorlikni oshirishga katta hissa qo'shishi mumkin. Umuman olganda, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi sohasida investitsiyalar hajmini oshirish va ulushini tiklash uchun, investitsiya muhitini yanada yaxshilash, risklarni kamaytirish va barqaror rivojlanishga yo'naltirilgan yondashuvlarni joriy etish muhim ahamiyatga ega.

Kapital samaradorligi — bu investitsiya qilingan mablag'lar asosida ishlab chiqarilgan mahsulot hajmining nisbatini ifodalovchi muhim iqtisodiy ko'rsatkichdir. Ushbu ko'rsatkich qishloq xo'jaligi sub'ektlarining investitsiyalarni qanchalik samarali ishlatayotganini baholash imkonini beradi. Jadvaldagi ma'lumotlar asosida, so'nggi yillarda qishloq xo'jaligi sohasida kapital samaradorligi barqaror darajada saqlanib qolmoqda. Ya'ni, kiritilgan har bir so'm investitsiya evaziga o'rtacha ikki so'mlik mahsulot ishlab chiqarilmoqda. Bu holat, qishloq xo'jaligi sohasida mavjud resurslardan oqilona foydalanish va ishlab chiqarish samaradorligi sezilarli darajada oshganini ko'rsatadi. Shu bilan birga, barqaror kapital samaradorligi sohaning investitsiya siyosatini takomillashtirish, yangi texnologiyalarni joriy etish va ishlab chiqarish jarayonlarini optimallashtirish imkoniyatlarini belgilaydi. Investitsiya samaradorligini yanada oshirish uchun qishloq xo'jaligi sub'ektlarida innovatsion yechimlarni keng joriy etish, resurslardan samarali foydalanish hamda ekologik va ijtimoiy mezonlarga qat'iy rioya qilish zarur. Bunday yondashuv uzoq muddatli barqaror rivojlanish va qishloq hududlarida ijtimoiy-iqtisodiy holatni yaxshilashga xizmat qiladi.

Xulosa va tavsiyalar

Qishloq xo'jaligi sohasida investitsiya faoliyatining samaradorligini baholash va tahlil qilish O'zbekiston iqtisodiyoti uchun dolzarb masala bo'lib qolmoqda. So'nggi yillarda umumiy kapitalga investitsiyalar hajmi sezilarli darajada oshgani bilan birga, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi sohasiga ajratilgan investitsiyalarning ulushi kamayib borayotgani aniqlandi. Bu tendentsiya sohaning boshqa iqtisodiy tarmoqlar bilan raqobatlashuvi va investitsiya siyosatini takomillashtirish zaruratini ko'rsatadi.

Tavsiyalar **Investitsiya muhitini yaxshilash:** Qishloq xo'jaligi sohasiga investitsiyalarni jalb qilish uchun qonunchilikni takomillashtirish va investitsiya

sharoitlarini soddalashtirish zarur. **Innovatsion texnologiyalarni keng joriy etish:** Zamonaviy texnologiyalar va raqamli yechimlar yordamida ishlab chiqarish samaradorligini oshirish va resurslardan oqilona foydalanishni ta'minlash lozim. **Ijtimoiy va ekologik mezonlarni hisobga olish:** Investitsiyalarni baholashda ijtimoiy va ekologik xavfsizlik omillarini doimiy nazorat qilish orqali barqaror rivojlanishni ta'minlash muhim. **Moliyaviy qo'llab-quvvatlashni kuchaytirish:** Kreditlar, subsidiyalar va boshqa moliyaviy instrumentlarni kengaytirish orqali kichik va o'rta qishloq xo'jaligi korxonalarining investitsiya faolligini oshirish kerak. **Malakali kadrlarni tayyorlash:** Investitsiya jarayonlarini samarali boshqarish uchun mutaxassislar tayyorlash va ularning malakasini oshirishga e'tibor qaratish muhim.

Foydalangan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 28-yanvardagi PQ-4575-son qarori. O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030-yillarga mo'ljallangan strategiyasida belgilangan vazifalar. <https://lex.uz/uz/docs/-4714632?ONDATE=09.06.2021>.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. 23.10.2019 yildagi PF-5853-son. <https://lex.uz/docs/-4567334?ONDATE=24.10.2019>
5. Inzelt, A., & Csonka, L. (2017). The Approach of the Business Sector to Responsible Research and Innovation (RRI). Foresight and STI Governance, 11(4), 63–73. <https://dx.doi.org/10.17323/2500-2597.2017.4.63.73>.
3. Rojo-Ramírez A. A. Privately Held Company Valuation and Cost of Capital. Journal of Business Valuation and Economic Loss Analysis. 2014. Vol. 9. Is. 1. <https://doi.org/10.1515/jbvela-2013-0017>.
4. https://iqtisodiyot.tsue.uz/sites/default/files/maqolalar/5_Astanakulov.pdf